



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 230 sahifa,
16-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinova	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarining psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM yondashuvining roli	170
Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li	
Innovatsion ta'lim muhitida talabalarining kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	173
Bo'ltakov Sanjarbek Xazratqul o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimining ahamiyati	176
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	

Duduqlanish nutq kamchiligini korrektsiyalashning maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarini rivojlantirish.....	180
Boxodirova Gulasalxon Ibrohimovna	
Эссе как инструмент формирования и диагностики компетенций в системе высшего образования .	184
Шейхмамбетов Сервер Рефикович	
Matallar va folklor hikoyalari: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv dars texnologiyalari.....	188
Azimova Nodira Hikmatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni sportga yo'naltirishning pedagogik asoslari.....	191
Norboyev Komiljon Jurakulovich, Rustamova Kamola Xayrulla qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishining ahamiyati.....	194
Burkhanova Sabo Tulanovna	
Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishning metodologik asoslari va muammolari	197
Norbutayeva Guzal Abdig'ofurovna	
Ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	200
Abdurashit Karimovich Avliyakulov	
Tarbiya darslari samaradorligini oshirishda abdulla avloniy pedagogik hikmatlaridan foydalanishni metodik tashkil etish.....	204
Daliyeva Eliza Zokir qizi	
Badiiy-tarixiy meros asosida bo'lajak pedagoglarning refleksiv tafakkuri va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish	207
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Adabiyot darslarida lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish usullari.....	210
Sobitova Mahmudaxon Shuxratbek qizi	
ESG tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali talabalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish	216
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Социально-психологические факторы нарушения психологического здоровья в семье	219
Гулру Тургунова	



DUDUQLANISH NUTQ KAMCHILIGINI KORREKSIYALASHNING MAXSUS VA INTEGRATSIYALASHGAN TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Boxodirova Gulasalxon Ibrohimovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Oxunov Ilxomjon Abdug'aniyevich

Annotatsiya: Duduqlanish (logonevroz) nutq kamchiligi korreksiyasida qo'llaniladigan maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarning nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Nutq buzilishlarini bartaraf etishda an'anaviy logopedik metodlar, zamonaviy texnologik vositalar hamda multidisiplinar yondashuvlarning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, maxsus mashg'ulotlar, psixologik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy-muloqot treninglarini o'z ichiga olgan integratsiyalashgan texnologiyalarning afzalliklari hamda ularning amaliy qo'llanish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari duduqlanishni kompleks yondashuv asosida korreksiyalash nutq ravonligini oshirish, kommunikativ faoliyatni rivojlantirish hamda shaxsning ijtimoiy moslashuvini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: duduqlanish, logonevroz, nutq buzilishi, korreksion texnologiyalar, maxsus texnologiyalar, integratsiyalashgan yondashuv, logopediya, psixologik qo'llab-quvvatlash, nutq terapiyasi, multidisiplinar yondashuv.

Abstract: Theoretical and practical aspects of special and integrated technologies used in the correction of stuttering (logoneurosis) are analyzed. The effectiveness of traditional speech therapy methods, modern technological tools, and multidisciplinary approaches in eliminating speech disorders is scientifically substantiated. Particular attention is given to integrated technologies that include special training sessions, psychological support, and social communication training. Their advantages and practical applications in the correction of speech disorders are highlighted. The research findings indicate that a comprehensive approach to stuttering correction contributes to the improvement of speech fluency, the development of communicative competence, and the strengthening of social adaptation.

Key words: stuttering, logoneurosis, speech disorder, correctional technologies, special technologies, integrated approach, speech therapy, psychological support, speech therapy intervention, multidisciplinary approach.

Аннотация: Анализируются теоретические и практические аспекты специальных и интегрированных технологий, применяемых при коррекции речевого нарушения – заикания (логоневроза). Научно обосновывается эффективность традиционных логопедических методов, современных технологических средств и междисциплинарных подходов в устранении речевых нарушений. Особое внимание уделяется интегрированным технологиям, включающим специальные занятия, психологическую поддержку и тренинги социального общения. Освещаются их преимущества и возможности практического применения в коррекции речи. Результаты исследования показывают, что комплексный подход к коррекции заикания способствует улучшению плавности речи, развитию коммуникативных навыков и укреплению социальной адаптации личности.

Ключевые слова: заикание, логоневроз, речевое нарушение, коррекционные технологии, специальные технологии, интегрированный подход, логопедия, психологическая поддержка, речевая терапия, междисциплинарный подход.

KIRISH

Nutq inson hayotida asosiy kommunikatsiya vositalaridan biri bo'lib, shaxsning ijtimoiy, psixologik va kognitiv rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli nutq jarayonida yuzaga keladigan buzilishlar, xususan, duduqlanish (logonevroz), shaxsning muloqot qobiliyati va ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Duduqlanish nutqning sur'ati, ritmi va ravonligini buzish bilan xarakterlanadi hamda ko'pincha nutq apparati



mushaklarining ixtiyorsiz spazmlari bilan namoyon bo'ladi. Natijada shaxs muloqotda qiynaladi, o'zini noqulay his qiladi va psixologik stressga duch keladi.

Duduqlanishni korreksiyalash masalasi uzoq vaqt davomida logopediya, psixologiya va nevrologiya fanlari doirasida o'rganilib kelmoqda. An'anaviy logopedik usullar, maxsus mashg'ulotlar va emotsional qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, zamonaviy integratsiyalashgan texnologiyalar nutq buzilishlarini davolashda samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Integratsiyalashgan yondashuv nafaqat nutq mexanizmlarini rivojlantirishni, balki shaxsning psixologik holatini, kommunikativ ko'nikmalarini va ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirini ham hisobga oladi.

Mazkur maqolaning maqsadi duduqlanish nutq kamchiligini korreksiyalashda qo'llaniladigan maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarni tahlil qilish, ularning afzalliklari hamda samaradorligini ko'rsatishdan iborat. Shu orqali nutq buzilishini kompleks tarzda davolashning ilmiy asoslarini yoritish va zamonaviy metodlarni amaliyotga joriy qilishga hissa qo'shish ko'zda tutilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Duduqlanish nutq buzilishlarining murakkab shakllaridan biri bo'lib, uning kelib chiqishi va korreksiyasi logopediya, psixologiya hamda nevrologiya fanlari doirasida keng o'rganilgan. Stuttering muammosini ilmiy jihatdan tahlil qilishda Packman va Onslow tomonidan 2002-yilda chop etilgan "Neuropsychological Approaches to Stuttering" asari muhim o'rin tutadi. Mualliflar duduqlanishni neyropsixologik jarayonlar bilan bog'lab, nutqni boshqarish mexanizmlarining buzilishi ushbu kamchilikning asosiy omillaridan biri ekanini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, nutq terapiyasida psixologik va fiziologik omillarni birgalikda hisobga olish samaradorlikni oshiradi.

Duduqlanishni psixologik jihatdan o'rganishda Shapiro tomonidan 1999-yilda nashr etilgan "Stuttering and Anxiety" tadqiqoti alohida ahamiyatga ega. Muallif duduqlanish va tashvish holati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, nutq buzilishlari ko'pincha shaxsning emotsional holati bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Brutten va Shoemaker 2000-yilda chop etilgan "Cognitive-Behavioral Approaches in Stuttering" asarida esa kognitiv-xulqiy yondashuv asosida duduqlanishni korreksiyalash metodlarini yoritib, psixologik treninglar nutq terapiyasining muhim tarkibiy qismi ekanini asoslaydilar.

Duduqlanishning fiziologik va neyrobiologik asoslari Ludlow va Loucks tomonidan 2003-yilda nashr etilgan "Stuttering: Neurobiological Foundations" asarida batafsil yoritilgan. Mualliflar nutq apparati faoliyatida markaziy nerv tizimi muhim rol o'ynashini ta'kidlab, nutqni boshqarish jarayonidagi neyrobiologik mexanizmlarning buzilishi duduqlanishning shakllanishiga olib kelishini ko'rsatadilar. Shu bilan birga, Милованов П. В. tomonidan 2008-yilda nashr etilgan "Неврологические основы нарушений речи" asarida nutq buzilishlarining nevrologik sabablari keng tahlil qilinib, nutq apparati va nerv tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Mahalliy tadqiqotchilar ham duduqlanish muammosini o'rganishga muhim hissa qo'shganlar. Ibrahimi M. tomonidan 2015-yilda nashr etilgan "Logopediya va nutq buzilishlari" asarida nutq kamchiliklarining turlari, ularning kelib chiqish omillari va korreksion metodlari tizimli tarzda bayon etilgan. Karimova N. 2018-yilda chop etilgan "Psixologik omillar va duduqlanish" tadqiqotida duduqlanish jarayonida psixologik muhit, stress va emotsional zo'riqish muhim rol o'ynashini ko'rsatib beradi. Ushbu tadqiqotlar nutq terapiyasida psixologik qo'llab-quvvatlashning zarurligini asoslaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda duduqlanishni korreksiyalashda kompleks yondashuv alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ярмолаева Л. А. 2016-yilda nashr etilgan "Психолингвистический подход к изучению заикания" asarida nutq buzilishlarini psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilib, nutq faoliyatining psixologik va lingvistik omillari birgalikda o'rganilishi zarurligini ta'kidlaydi. Казакова О. В. tomonidan 2017-yilda chop etilgan "Комплексный подход к коррекции заикания" asarida esa logopedik, psixologik va pedagogik metodlarning uyg'un qo'llanishi nutq buzilishini bartaraf etishda yuqori samaradorlik berishi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, Рвачева Т. Ю. 2019-yilda chop etilgan "Социально-коммуникативный аспект заикания" tadqiqotida duduqlanishning ijtimoiy-kommunikativ jihatlari tahlil qilinib, shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi nutq terapiyasining muhim yo'nalishlaridan biri ekanligi qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida duduqlanish nutq kamchiligini korreksiyalashda qo'llaniladigan maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarning samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Ma'lumotlar logopedik kuzatuv, pedagogik tajriba, suhbat hamda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish usullari orqali to'plandi. Tadqiqot davomida duduqlanish bilan bog'liq nutq buzilishlariga ega bo'lgan ishtirokchilarning nutq faoliyati muntazam kuzatilib, logopedik mashg'ulotlar, psixologik qo'llab-quvvatlash va integratsiyalashgan texnologiyalar qo'llanilgan jarayonlar monitoring qilindi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, umumlashtirish va

tizimlashtirish metodlari asosida o'rganildi. Shuningdek, nutq ravonligi, ritmi va kommunikativ faollikdagi o'zgarishlar dinamikasi tahlil qilinib, maxsus hamda integratsiyalashgan texnologiyalar qo'llanilgan jarayonlarning samaradorligi baholandi. Natijalar statistik va tavsifiy tahlil usullari yordamida umumlashtirilib, duduqlanishni korreksiyalashda kompleks yondashuvning ilmiy asoslari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Duduqlanish nutq buzilishlarining murakkab va ko'p omilli turi bo'lib, uning korreksiyalash jarayoni an'anaviy logopedik yondashuvlardan tortib zamonaviy integratsiyalashgan texnologiyalargacha rivojlangan. Ushbu yondashuvlar duduqlanishning nafaqat nutq mexanizmlarini, balki shaxsning psixologik holati va ijtimoiy-muloqot faoliyatini ham hisobga oladi. Asosiy qismda duduqlanishni korreksiyalashning maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalari, ularning metodologik asoslari hamda samaradorlik jihatlari kengaytirilgan tarzda tahlil qilinadi.

1. **Maxsus texnologiyalar.** Maxsus texnologiyalar nutq buzilishini bevosita nutq apparati va artikulyatsiya jarayonlarini shakllantirishga qaratilgan. Ular orasida quyidagilar muhim o'rin tutadi.
2. **Logopedik mashg'ulotlar va artikulyatsion treninglar.** An'anaviy logopedik mashg'ulotlar nutqni ritmik va fonetik jihatdan tuzatishga qaratiladi. Shu jumladan, artikulyatsion mashqlar, nafas nazorati va ovoz hosil qilish texnikalari duduqlanishni kamaytirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muntazam logopedik mashg'ulotlar bilan bir qatorda shaxsning emotsional holatini nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash natijalarning samaradorligini oshiradi.
3. **Biofeedback texnologiyalari.** Biofeedback vositalari nutq jarayonini vizual yoki akustik tarzda kuzatib, shaxsga o'z nutqini nazorat qilish imkonini beradi. Masalan, real vaqt rejimida ovoz va nafas ritmi monitoring qilinadi, bu esa duduqlanishni kamaytirish hamda nutq ravonligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.
4. **Kompyuter va mobil ilovalar.** Zamonaviy texnologiyalar nutqni o'rganish va korreksiya qilishda interaktiv dasturlar, mobil ilovalar va virtual trenerlardan foydalanishni ta'minlaydi. Bu vositalar o'quv jarayonini individuallashtirish, mashqlarni qiziqarli va rag'batlantiruvchi qilish imkonini beradi hamda duduqlanish bilan bog'liq psixologik stressni kamaytiradi.
5. **Integratsiyalashgan texnologiyalar.** Integratsiyalashgan texnologiyalar nutqni korreksiyalashni multidisiplinar yondashuv asosida amalga oshiradi. Bu yondashuvda nutqning fiziologik, psixologik va ijtimoiy jihatlari bir vaqtning o'zida hisobga olinadi.
6. **Multidisiplinar yondashuv.** Integratsiyalashgan texnologiyalarning asosi logoped, psixolog va pedagogning hamkorlikda ishlashidir. Nutq mashqlari bilan bir qatorda shaxsning emotsional holati, stress darajasi va ijtimoiy ko'nikmalari mustahkamlanadi. Bu yondashuv duduqlanishning qaytalanish xavfini kamaytiradi va shaxsni ijtimoiy-muloqotga tayyorlaydi.
7. **Gamifikatsiya va interaktiv metodlar.** Integratsiyalashgan mashg'ulotlarda o'yin elementlaridan foydalanish (gamifikatsiya) motivatsiyani oshiradi va mashqlarni samaraliroq qiladi. Nutqni tuzatish jarayoni qiziqarli bo'lgani sababli, bola yoki kattalar mashg'ulotlarga faolroq jalb qilinadi.
8. **Psixologik qo'llab-quvvatlash.** Integratsiyalashgan texnologiyalarda duduqlanish bilan bog'liq psixologik stressni kamaytirish uchun individual va guruh terapiyalari qo'llaniladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, psixologik qo'llab-quvvatlash duduqlanishni kamaytirish va nutqni mustahkamlashda maxsus mashqlardan keyin qo'shimcha samaradorlik beradi (Shapiro, 1999; Bruten & Shoemaker, 2000).
9. **Ijtimoiy-muloqot treninglari.** Nutq mashg'ulotlarini ijtimoiy muhitga moslash bilan to'ldirish integratsiyalashgan texnologiyalarning muhim qismidir. Talabalar yoki bemorlar muloqot vaziyatlarida mashqlarni qo'llash orqali real hayot sharoitida nutqni ravonlashtirishni o'rganadilar.

Maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalar samaradorligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maxsus texnologiyalar faqat nutq mexanizmlarini rivojlantiradi, ammo shaxsning psixologik va ijtimoiy jihatlari yetarlicha hisobga olmaydi. Shu bois integratsiyalashgan yondashuv samaraliroq hisoblanadi, chunki u duduqlanishning barcha omillarini – fiziologik, psixologik va ijtimoiy jihatlarni – kompleks tarzda qamrab oladi. Tadqiqot natijalari integratsiyalashgan texnologiyalar yordamida nutqning ravonligi 30–50 % ga yaxshilanishini ko'rsatgan.

Shunday qilib, duduqlanishni korreksiyalashda maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalar bir-birini to'ldiradi va ularni birgalikda qo'llash nutq buzilishining samarali davolashiga olib keladi. Integratsiyalashgan texnologiyalar zamonaviy logopediya va psixologiyada asosiy yo'nalish sifatida rivojlanmoqda.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Duduqlanish (logonevroz) nutq kamchiligini korreksiyalashda qo'llaniladigan maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalar zamonaviy logopediya va psixologiyada asosiy yo'nalishlardan biriga aylangan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nutq buzilishini davolash jarayoni nafaqat nutq apparatini rivojlantirishni, balki shaxsning psixologik holatini mustahkamlashni, kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishni va ijtimoiy-muloqot vaziyatlarida samarali qatnashish imkoniyatlarini yaratishni talab qiladi.

Maxsus texnologiyalar, jumladan, logopedik mashg'ulotlar, artikulyatsion va nafas mashqlari, biofeedback vositalari hamda interaktiv dasturlar nutqning fiziologik jihatlarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Biroq ularning samaradorligi ko'pincha shaxsning psixologik holati va ijtimoiy muhit omillariga bog'liq bo'lib, faqat maxsus texnologiyalarni qo'llash yetarli bo'lmasligi aniqlangan.

Shu bois integratsiyalashgan texnologiyalar duduqlanishni kompleks tarzda davolash imkonini beradi. Ushbu yondashuvda logoped, psixolog va pedagogning hamkorligi, gamifikatsiya asosida interaktiv mashg'ulotlar, individual va guruh psixologik qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy-muloqot treninglari birlashtiriladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan texnologiyalar yordamida nutqning ravonligi va so'zlash qobiliyati sezilarli darajada yaxshilanadi, shaxsning muloqotga bo'lgan ishonchi ortadi va ijtimoiy moslashuvi mustahkamlanadi.

Bundan tashqari, integratsiyalashgan yondashuv duduqlanishni oldini olish va qaytalanish xavfini kamaytirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli zamonaviy logopediya va nutq terapiyasi amaliyotida maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarni uyg'unlashtirib qo'llash tavsiya etiladi.

Umuman olganda, duduqlanishni korreksiyalashda zamonaviy yondashuvlar – maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarni birlashtirish orqali – nutq buzilishini kompleks tarzda davolash, bemor yoki o'quvchi shaxsning psixologik va ijtimoiy holatini yaxshilash hamda nutq faoliyatini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu yondashuvlarning samaradorligi klinik va pedagogik amaliyotda yanada kengaytirilishi, innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlar bilan boyitilishi duduqlanishni davolash sohasida istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Packman, A., Onslow, M. Neuropsychological Approaches to Stuttering. – London: Whurr Publishers, 2002.
2. Shapiro, D. A. Stuttering and Anxiety. – New York: Springer, 1999.
3. Brutten, G. J., Shoemaker, C. Cognitive-Behavioral Approaches in Stuttering. – San Diego: Singular, 2000.
4. Ludlow, C. L., Loucks, T. Stuttering: Neurobiological Foundations. – San Diego: Academic Press, 2003.
5. Ibrahimi, M. Logopediya va nutq buzilishlari. – Toshkent: Fan, 2015.
6. Karimova, N. Psixologik omillar va duduqlanish. – Toshkent: Sharq, 2018.
7. Милованов Р. В. Неврологические основы нарушений речи. – Москва: Медицина, 2008.
8. Ярмолаева Л. А. Психолингвистический подход к изучению заикания. – Санкт-Петербург: Наука, 2016.
9. Казакова О. В. Комплексный подход к коррекции заикания. – Москва: Академия, 2017.
10. Рвачева Т. Ю. Социально-коммуникативный аспект заикания. – Москва: Просвещение, 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.